



## KORRUPSIYASIZ JAMIYAT QURAMIZ

*Sadullayeva Farida Farxod qizi*

*Termiz Davlat Universiteti Yuridik Fakulteti 3- kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biri bo'lgan korrupsiya illatining nima ekanligi, javobgarlik masalasi, korrupsiyaga qarshi kurashda jahon tajribasi bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Korrupsiya, profilaktika, global, illat, kodeks.*

## WE BUILD A SOCIETY WITHOUT CORRUPTION

**Annotation:** *this article describes what is the illusion of corruption, one of the global problems to be solved on a global scale, the issue of responsibility, the world experience in the fight against corruption.*

**Keywords:** *Corruption, Prevention, global, vile, code.*

## ПОСТРОИМ ОБЩЕСТВО БЕЗ КОРРУПЦИИ

**Аннотация:** *В данной статье излагается, что такое коррупционный порок, вопрос ответственности, мировой опыт борьбы с коррупцией, которая является одной из глобальных проблем, которую необходимо решать в глобальном масштабе.*

**Ключевые слова:** *коррупция, профилактика, глобальный, порок, кодекс.*



Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo‘lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Korrupsiya bu – jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illat ekanligiga bugun barchamiz guvoh bo‘lib turibmiz. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2003-yil 21-noyabrdagi rezolyutsiyasiga muvofiq, 2004-yildan boshlab “9-dekabr – Butunjahon korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” sifatida nishonlanishi ham bejiz emas.

Korrupsiya- shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shxasiy manfaatlarni yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir.

Korrupsiyaga qarshi kurashda avvalo, uning uchun shart-sharoit yaratib bergan omillarni bartaraf etish lozim. “Kasalni davolagandan ko‘ra uni oldini olgan osonroq”- deganlaridek, korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘lib o‘tgandan keyin emas, balki shu jarayon sodir bo‘lgunga qadar profilaktik chora-tadbirlar ko‘rgan ma‘qul.

Har bir davlat korrupsiyaga qarshi davlat dasturlarini ishlab chiqishi lozim. Korrupsiga qarshi belgilangan dastur asosida bosqichma-bosqich kurash olib borilsa kurashdan ko‘zlangan maqsadga yetishish tezroq va osonroq bo‘ladi.

Qonunchiligimizda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyat olib boradigan sanoqli organlar ko‘rsatilgan. Nega endi korrupsiyaga qarshi kurash bilan faqat shu organlar shug‘ullanishi kerak? Aslida bu kurashda oddiy bog‘cha, maktabdan tortib yuqori turuvchi organlar hammasi birdek shug‘ullanishi kerak



emasmi? Bu organlarda ishlaydiganlar ham oddiy odam. Ularni boshqa odamlardan ajratib turadigan jihat faqatgina ularning shu organlarda xizmat olib borishi xolos, men boshqa farqni ko'rmayapman.

Korrupsiyaga qarshi hamma fuqarolar birdek shug'ullanishi kerak. Ana shundagina natijaga erishsa bo'ladi.

Manfaatlar to'qnashuvi ham korrupsiyaning bir turi. Manfaatlar to'qnashuvi holatida bu ishda ishtirok etayotgan insonlardan hech biri ikkinchisini sotmaydi. Axir bu ishda tomonlar manfaati yotibdi. Oddiy ishni bitkazib berish evaziga mulkiy xizmatlar yoki pul taklif etish ham korrupsiya. Bir tomon ishni bitkazib berish uchun pul bersa – pora beruvchi, ishni bitkazib berish evaziga pul olgan odam esa – pora oluvchi, ularni topishtirgan o'rtadagi shaxs esa – pora olish – berishda vositachi hisoblanadi. Ularning bu harakatlari uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 210 (pora olish), 211 (pora berish), 212 (pora olish-berishda vositachilik qilish) -moddalari bo'yicha jinoyat ishi qo'zgatiladi. Maksimal jazo muddati 210, 211, 212-moddalar uchun 15 yilni tashkil qiladi. Bizni qonunchiligimizda korrupsiya uchun 15 yillik ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan bo'lsa, boshqa rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar qonunchiligida esa ushbu qilmish uchun "o'lim" jazosi belgilangan. 15 yil og'izni bir chekkasidan shunday chiqib ketadi-ey. O'lim jazosidan ko'ra xalq tili bilan aytganda 15 yillik "qamoq" jazosi yengildek tuyuladi. Ko'pchilik mahbuslar ana shu 15 yilni qiynalib, yaqinlardan uzoqda, shu ishni qilmasam bo'lardi degan vijdon azobi bilan o'tkazguncha, o'lib qo'ya qolsam bo'lardi deb o'ksinishadi. Afsuski qonunchiligimiz "o'lim" jazosini ta'qiqlagan. Negaki, insonni jonini faqat Alloh oladi. Bandani boshqa bandani jonini olishga haqqi yo'q. Odam o'ldirish eng og'ir gunohlardan biri. Qonunchiligimizda eng og'ir jazo ham odam o'ldirishga belgilangani bejizga emas...



Shu o'rinda boshqa davlatlarda korrupsiyaga qarshi qanday usullar qo'llanilayotganini ko'rib chiqsak.

AQSHda davlat xizmatchilari orasida korrupsiya profilaktikasini ta'minlash maqsadida, "Ma'muriy axloq" qoidalari ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, davlat xizmatchisi lavozim maoshi summasining 15 foizidan yuqori bo'lgan haq evaziga tashqi o'rindoshlik asosida boshqa joyda ishlashi taqiqlanadi. Bu cheklov AQSH senati a'zolaridan tashqari barcha mansabdor shaxslarga tegishli.

AQSHning korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasining yana bir muhim qoidasi bu – mansabdor shaxsning sovg'a olishiga nisbatan taqiq qo'yilganligidir. Qoidaga muvofiq, barcha davlat idorasi xodimlarining bir kalendar ish yili mobaynida umumiy qiymati 100 AQSH dollardan oshadigan sovg'alarni qabul qilishi taqiqlanadi (AQSH Kongressi xodimlari 250 AQSH dollargacha). Bundan tashqari, Ma'muriy axloq qoidalari binoan, sayohat bileti shaklida sovg'a olishga ham cheklov bor. Bunda, mamlakat ichida sayohat qilishda 3 kun (ikki kecha), chet elga esa, 7 kungacha (olti kecha) chegara belgilangan. Bunday cheklov hattoki senatorning oila a'zolariga ham tatbiq qilinadi.

Buyuk Britaniyada xodimlar va ish beruvchilar o'rtasida korrupsiyaviy omillar urchishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida "Davlat xizmati kodeksi" ishlab chiqilgan. Ushbu kodeks normalariga barcha davlat xizmatchilar amal qilishi majburiy hisoblanadi.

Bundan tashqari ishchilarning qancha maosh olishi Hukumat saytida ochiq tarzda doimiy ravishda e'lon qilib boriladi.

Yaponiyada ham korrupsiyaga qarshi kurashning muhim yo'nalishi kadrlar siyosati bilan bevosita bog'liq. Kadrlarni ishga olayotganda ta'limda erishgan yuquqlariga qaraladi. Mamlakatda korrupsiya yoki uyushgan jinoyatchilikda ayblangan shaxslar reyestri yuritilib, faktlar ommaviy axborot vositalari orqali



jamoatchilik e'tiboriga havola etilishi shaxslarning o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishiga imkon yaratadi.

Germaniyada mansabdor shaxslar uchinchi shaxslar manfaatini ko'zlashi natijasida ishdan bo'shatilganda 5 yilga qadar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish taqiqlangan (AQSHda 2 yil). Xitoyda yuqori martabali rahbarlarning farzandlari yoki qarindoshlariga biznes ishi bilan shug'ullanish, bu sohada agent yoki maslahatchi bo'lish taqiqlanadi.

Xitoyda Ju Ruyfen o'ndan ortiq rasmiyning o'z mansabini suiiste'mol qilayotganini internet orqali ommaga fosh qilgan jurnalist. U 2011- yildan beri 50 hukumat rasmiysi va 33 mahalliy rasmiy ustidan surishtruv olib borgan.

Yaqinda Kommunistik partiya fuqarolardan korrupsiyaga doir shikoyatlarni qabul qilish uchun maxsus saytni ishga tushirdi. Odatda korrupsiyada ayblangan rasmiylar sudga topshirilishidan oldin qilmishi partiya tomonidan ko'rib chiqilib, ularning aybi bor-yo'qligi borasida rasmiy xulosa e'lon qilinadi.

Ba'zilar korrupsiyani saraton yoki koronavirusga o'xshatadilar, ikkala holatda ham odamlarning sog'lig'ini buzadigan, resurslar va rivojlanish imkoniyatlarini yo'q qiladigan, hatto umidni yo'q qiladigan va aholining adolat va rivojlanishga bo'lgan ishonchini pasaytiradigan kasallik, deb biladi.

Tahlillarga ko'ra, hozirda korrupsiyaning dunyo miqyosidagi zarari 3 trillion AQSH dollariga yaqin miqdorni tashkil qilmoqda. Har yili dunyo bo'ylab taxminan 1 trillion AQSH dollari miqdorida pora beriladi. Korrupsiyaning global jamiyat uchun ziyoni yiliga 2,6 trillion AQSH dollarini tashkil etadi.

Shu jihatdan, bugungi kunda dunyo korrupsiyani to'xtatish uchun ko'tarilgan qo'llarga, unga qarshi turish uchun bir-biriga bog'langan va unga qarshi turgan



fidoyilarga salom beradigan qo‘llarga muhtoj. Demak, hali qilgan ishlarimizdan qiladiganlari juda ko‘p.

Muxtasar qilib aytganda, adolat ustuvor bo‘lsa, mamlakatda taraqqiyot, xalq farovonligi, islohotlar samarasi ta’minlanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashishga doir qabul qilanayotgan normativ hujjatlar nafaqat korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmi mustahkamlanishini, balki har bir rahbar, har bir fuqaroning o‘ziga yuklatilgan vazifani sidqidildan, halol ado etishini, shu bilan birga, jamiyatdagi muhit, aholining huquqiy bilimi, madaniyat darajasi, ma’naviyati, uyushqoqligi va jamoat faolligi pastligi kabi omillarga barham berishni talab etadi. Shunday ekan, o‘zimizga xulosa qilishimiz, kelajakni korrupsiyasiz birgalikda qurishimiz, buning uchun avvalo, o‘zimizni o‘zimiz tarbiya qilishimiz, korrupsiyaning har qanday ko‘rishnini bartaraf qilish uchun birgalikda kurashishimiz zarurdir.

Xulosa shuki, o‘tgan davrda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muayyan natijalarga erishilgan bo‘lsa-da, istiqbolda bir qator vazifalarni amalga oshirish lozim. Bunda, raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish, yoshlarni korrupsiyaga murosasiz ruhda tarbiyalash, korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni kelgusida muayyan huquqlardan mahrum qilish kabi choralarga alohida ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq. Faqat shundagina oldimizga qo‘ygan oliy maqsad – korrupsiyasiz jamiyatni qurishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash tog‘risida”gi qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
3. Korrupsiyaga qarshi kurash. Darslik. T.: “Akademiya”, 2022 - 344 b.
4. Huquqiy ko‘nikmalar va metodologiya. Darslik. T.: 2022



**Foydalanilgan internet saytlari:**

1. <https://www.amerikaovozi.com/>
2. <https://www.daryo.uz/>
3. <https://www.parliament.gov.uz/>
4. <https://www.buxdu.uz/>